


KORXONALARDA DEBITORLIK QARZLARINI BOSHQARISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI

Qurbanov Javlonbek Jurabekovich,
TDIU "Korporativ moliya va
qimmatli qog'ozlar" kafedrasini
professori v.b., PhD dotsent

Har bir xo'jalik yurituvchi sub'yektlar doimiy ravishda investitsion jozibadorligini oshirishga harakat qiladi. Bu masala ushbu sub'ektlar investitsiya jalgan qilishni rejalashtiradimi yoki yo'q, baribir dolzarbligicha qoladi. Bu masalani ijobiy hal qilishda moliyaviy munosabatlarning barcha yo'naliшlariga katta e'tibor qaratiladi. Bunda asosiy e'tibor qaratiladilishi lozim bo'lgan masala debtorlik qarzlarini samarali boshqarish bo'lib hisoblanadi. Debtorlik qarzlarini shakllanishini ta'qiqlab qo'yishning ham ushbu qarzlarni nazorat qilmaslikning ham to'g'ri qabul qilib bo'lmaydi. Bu jarayonda esa eng to'g'ri yo'l debtorlik qarzlarini ustidan samarali nazoratni tashkil etish va boshqarish bo'lib hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda quyida debtorlik qarzlarini samarali boshqarish orqali korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari xususida o'z ilmiy mulohazalarimizni keltirib o'tamiz.



1-Rasm. Debtorlik qarzlarini boshqarish natijalari

Manba: Muallif tomonidan tayyorlandi.

Debtorlik qarzlarini samarali boshqarish kompaniyaning likvidligini oshiradi. Debtorlik qarzlar muddatining o'tib ketishini oldini olish pul oqimlari harakatini yaxshilaydi, bu esa o'z navbatida erishiladigan foydaning naqd pul hisobiga ta'minlanishiga va kompaniya o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishiga zamin yaratadi. Mijozlardan o'z vaqtida to'lovlarni olish natijasida kompaniya o'zining qisqa muddatli aktivlarini samarali boshqara oladi, bu esa kapital aylanishining tezlashishiga va moliyaviy barqarorlikka xizmat qiladi. Pul oqimining barqarorligi kompaniyaning kreditorlarga bo'lgan ishonchini oshiradi va tashqi moliyalashtirishga ehtiyojni kamaytiradi. Natijada, kompaniya foiz xarajatlarini qisqartiradi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, debtorlik qarzlarini boshqarish orqali moliyaviy xavflarni kamaytirish mumkin, chunki to'lov muddati o'tgan qarzlar kamayadi va balansdagi shubhali qarzlar ulushi pasayadi. Investorlar likvidligi yuqori bo'lgan va pul oqimi

barqaror kompaniyalarga sarmoya kiritishni afzal ko'rishadi. Sababi, bunday kompaniyalar moliyaviy inqiroz holatlarida ham o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga ega bo'ladi va investitsion xavf past bo'ladi. Shunday qilib, debtorlik qarzlarini samarali boshqarish orqali kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin.

Debitorlik qarzlarini samarali boshqarish kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va risklarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. To'lovlarni nazorat qilish va moliyaviy siyosatni to'g'ri yuritish orqali muddati o'tgan qarzlar va umuman to'lanmaydigan debtorlik qarzlarining oldi olinadi. Bu esa kompaniyaning naqd pul oqimlarini yaxshilashga, likvidlikni oshirishga va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Debitorlik qarzları o'z vaqtida so'ndirilsa, kompaniya o'z loyihalarini kechiktirmasdan moliyalashtira oladi, bu esa faoliyat davomiyligi va o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi. Agar kompaniya o'z debtorlarining to'lov qobiliyatini aniq tahlil qilsa va ular bilan shartnomalarni samarali boshqarsa, to'lovga layoqatsizlik xavfi sezilarli darajada kamayadi. Debitorlik qarzları bilan bog'liq xavflarning kamayishi investorlar uchun ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Investorlar kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga ishonch hosil qilib, unga investitsiya kiritish imkoniyatlarini oshiradilar.

Debitorlik qarzlarini samarali boshqarish korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash bilan birga uning rentabelligini oshirishga ham xizmat qiladi. Debitorlik qarzlarining kamayishi kompaniyaning aylanma kapitaldan yanada samarali foydalanishiga imkon beradi, bu esa moliyaviy resurslarning to'g'ri taqsimlanishiga va rentabellik ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga olib keladi. Xususan, aktivlar rentabelligi (ROA) va o'z kapitalining rentabelligi (ROE) kabi moliyaviy ko'rsatkichlar yaxshilanadi. Aktivlar rentabelligi aktivlardan qancha samarali foydalanilayotganini aks ettirsa, o'z kapitali rentabelligi aksiyadorlarning investitsiyalardan qanday daromad olayotganini ko'rsatadi. Agar kompaniya debtorlik qarzlarini kamaytirsa, u o'z mablag'larini samarali ishlatib, investorlar uchun yanada jozibador bo'lishi mumkin. Investorlar odatda yuqori rentabellik darajasiga ega bo'lgan kompaniyalarga ko'proq qiziqish bildiradilar, chunki bu kabi kompaniyalar barqaror foya olish va moliyaviy xavflarni boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, korxonalar debtorlik qarzları aylanuvchanligini tezlashtirish orqali o'z investitsion jozibadorligini oshirishlari mumkin.

Debitorlik qarzları ustidan samarali moliyaviy nazorat o'rnatish kompaniyaning pul oqimlarini samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Debitorlik qarzlarini o'z vaqtida undirish va to'lov muddatlarini qat'iy nazorat qilish orqali kompaniya naqd pul oqimlarining uzluksizligini ta'minlaydi. Bu esa nafaqat pul oqimlarining barqarorligini ta'minlash, balki loyihalarni tezkor moliyalashtirish imkoniyatini ham yaratadi. Kompaniyaning operatsion faoliyati uchun zarur bo'lgan mablag'lar o'z vaqtida shakllanib boradi va bu moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, debtorlik qarzlarini

samarali boshqarish natijasida kompaniyaning sof foydasi taqsimlanishi uchun yetarli miqdorda pul oqimlari shakllanadi. Bu esa kompaniyaning dividend siyosatini barqaror saqlashga va aksiyadorlar manfaatlarini kafolatlashga yordam beradi. Investorlar odatda barqaror daromad va yaxshi boshqariladigan pul oqimlariga ega bo'lgan kompaniyalarga katta qiziqish bildiradilar, chunki bunday kompaniyalarga investitsiya kiritish xavfsiz va istiqbolli hisoblanadi. Pul oqimlarini samarali boshqarish va debitorlik qarzlarini minimallashtirish orqali kompaniya o'zining investitsion jozibadorligini oshirishi va kapital bozorida ishonchli imidj shakllantirishi mumkin. Shu sababli, debitorlik qarzlarini nazorat qilish korxonaning moliyaviy muvaffaqiyati va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismidir deb hisoblaymiz.

Debitorlik qarzlarini samarali boshqarish nafaqat kompaniyaning ichki moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki uni investorlar uchun jozibali qiladi. Shu sababli, kompaniyalar debitorlik siyosatini qayta ko'rib chiqib, to'lov intizomini kuchaytirish, qarz berish shartlarini optimallashtirish va monitoring tizimini joriy etish orqali o'z investitsion jozibadorligini oshirishi mumkin o'ylaymiz.

MOLIYAVIY BOZORDA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YIRIK INSTITUTSIONAL INVESTITSIYA SUBYEKTLARINING AHAMIYATINI KUCHAYTIRISH

Xamitillayeva Jasmina-

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

*Moliya fakulteti Xalqaro valyuta va
kredit munosabatlari yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Moliya bozorining barqarorligi – iqtisodiy o'sishning sog'lom asosini shakllantirish, spekulyativ risklarni minimallashtirish va uzoq muddatli investitsiyalar orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash nuqtayi nazaridan asosiy omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, institutsional investorlar (pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, davlat investitsiya agentliklari va boshqa yirik subyektlar) bozorga katta mablag'larni kiritish orqali, kichik investorlarga nisbatan ancha keng va chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ushbu investorlar, o'zlarining katta investitsiya portfellari va uzoq muddatli strategiyalari orqali, bozorning risklarini diversifikatsiyalash, likvidlikni oshirish hamda korporativ boshqaruv tizimini yaxshilashda muhim rol o'yndaydi. Amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, yirik investorlar bozorning o'zgaruvchan sharoitlarida spekulyatsion bosimni kamaytirish va tizimiylar barqarorlikni mustahkamlashda o'zining sezilarli ijobiy ta'sirini namoyon etadi. O'zbekiston sharoitida ham institutsional investorlarning faol ishtiroki moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda zarur omillardan biridir. Ular, investitsion mablag'larni samarali boshqarish orqali moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantirish, shaffof axborot almashinuvi va korporativ boshqaruvni mustahkamlash orqali bozorning sog'lom rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu bilan